

## O'zbekiston Respublikasida bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari


2026- yil yanvar-aprel

- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi o'zgarishi
- III. Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

### I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2026- yil yanvar-aprel oylarining dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **406 368,7** mlrd so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2025- yil yanvar-aprel oylari bilan solishtirganda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining real o'sishi **16,6** %ni tashkil etdi.

**Ma'lumot uchun:** 2025- yil yanvar-aprel oylarida xizmatlar hajmi **330 540,4** mlrd so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024- yil mos davri bilan solishtirganda **12,6** %ga o'sdi. Mazkur press-relizda keltirilgan ma'lumotlar dastlabki hisoblanib, qo'shimcha ma'lumotlar kelib tushishiga qarab keyingi nashrlarda aniqlashtirilishi mumkin.



### II. Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi o'zgarishi

2026- yilning yanvar-aprel oylarida bozor xizmatlarining umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi **39,8** %ni (**161 739,0** mlrd so'm) tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2025- yil yanvar-aprel oylari bilan solishtirganda real o'sish indeksi **118,2** %ni tashkil etdi. Shuningdek, viloyatlar kesimida eng yuqori hajm Samarqand (**30 002,4** mlrd so'm, ya'ni, bozor xizmatlari umumiy hajmining **7,4** %ini egalladi), Toshkent (**27 441,9** mlrd so'm, ya'ni **6,7** %), Farg'ona (**27 175,6** mlrd so'm, ya'ni **6,7** %) va Namangan viloyatlarida (**21 110,2** mlrd so'm, ya'ni **5,2** %) kuzatildi. Sirdaryo viloyatida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **5 599,4** mlrd so'mni yoki umumiy xizmatlar hajmining **1,4** %ini tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlari**  
2026- yil yanvar-aprel

	Hajmi, mlrd so'mda	Ulushi, %da	O'sish sur'ati, %da
<b>O'zbekiston Respublikasi <sup>1</sup></b>	<b>406 368,7</b>	<b>100,0</b>	<b>116,6</b>
<i>hududlar:</i>			
Qoraqalpog'iston Respublikasi	12 973,5	3,2	118,2
Andijon viloyati	19 816,3	4,9	113,9
Buxoro viloyati	16 097,8	4,0	114,5
Jizzax viloyati	9 540,1	2,3	116,7
Qashqadaryo viloyati	19 465,1	4,8	113,7
Navoiy viloyati	10 036,5	2,5	116,7
Namangan viloyati	21 110,2	5,2	117,7
Samarqand viloyati	30 002,4	7,4	117,3
Surxondaryo viloyati	13 475,5	3,3	117,5
Sirdaryo viloyati	5 599,4	1,4	119,0
Toshkent viloyati	27 441,9	6,7	115,7
Farg'ona viloyati	27 175,6	6,7	116,6
Xorazm viloyati	14 690,9	3,6	118,0
Toshkent shahri	161 739,0	39,8	118,2

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hududlar kesimidagi hajmi](#)

2026- yilning yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng yuqori real o'sish indeksleri Toshkent shahridan tashqari respublikaning boshqa hududlarida, xususan, Sirdaryo (**119,0 %**), Xorazm (**118,0 %**), Namangan (**117,7 %**), Surxondaryo (**117,5 %**), Samarqand (**117,3 %**), Jizzax (**116,7 %**), Navoiy (**116,7 %**) va Farg'ona (**116,6 %**) viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida (**118,2 %**) kuzatildi.

2026- yilning yanvar-aprel oylarida O'zbekiston Respublikasida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **10 607,5** ming so'mni, 2025- yil yanvar-aprel oylarida esa **8 786,2** ming so'mni tashkil etdi. Real o'sish sur'ati **114,5 %** darajasida qayd etildi.

Hududlar kesimidagi tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu davrda aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng yuqori ko'rsatkichi Toshkent shahriga to'g'ri kelib, **50 749,6** ming so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2025- yil yanvar-aprel oylari bilan solishtirganda **9 565,4** ming so'mga oshdi. Shuningdek, Navoiy (**9 013,5** ming so'm), Toshkent (**8 663,3** ming so'm) va Buxoro (**7 630,7** ming so'm) viloyatlarida nisbatan yuqori darajada shakllandi. Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining nisbatan past ko'rsatkichi Surxondaryo viloyatida (**4 465,2** ming so'm) qayd etildi.

<sup>1</sup> Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda.

**Hududlar kesimida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining  
hajmi va o'sish sur'ati ko'rsatkichlari**  
2026- yil yanvar-aprel

	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati, %da
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>10 607,5</b>	<b>114,5</b>
<i>hududlar:</i>		
Qoraqalpog'iston Respublikasi	6 311,6	116,9
Andijon viloyati	5 617,2	112,0
Buxoro viloyati	7 630,7	112,9
Jizzax viloyati	6 076,1	114,6
Qashqadaryo viloyati	5 226,4	111,3
Navoiy viloyati	9 013,5	115,0
Namangan viloyati	6 603,7	115,5
Samarqand viloyati	6 836,9	115,2
Surxondaryo viloyati	4 465,2	115,0
Sirdaryo viloyati	5 907,2	117,1
Toshkent viloyati	8 663,3	113,8
Farg'ona viloyati	6 422,5	114,5
Xorazm viloyati	7 089,8	116,0
Toshkent shahri	50 749,6	115,7

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmi](#)

[Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'ati](#)

Hududlar kesimida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmining yuqori o'sish sur'ati Sirdaryo viloyatida (**117,1** %) qayd etildi. Shu bilan birga, ushbu ko'rsatkichning yuqori o'sish sur'ati Xorazm (**116,0** %), Namangan (**115,5** %), Samarqand (**115,2** %), Navoiy (**115,0** %), Surxondaryo (**115,0** %), Jizzax (**114,6** %) viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida (**116,9** %) va Toshkent shahrida (**115,7** %) qayd etildi.

2026- yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **230 080,0** mlrd so'mni yoki umumiy bozor xizmatlari hajmining **56,6** %ini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2025- yil yanvar-aprel oylari bilan solishtirganda **115,7** %ni tashkil etdi.

Hududlar orasida kichik biznesning xizmatlar hajmidagi eng yuqori ulushi Farg'ona (**75,4** %), Surxondaryo (**74,1** %), Qashqadaryo (**73,6** %), Namangan (**73,2** %), Andijon (**72,8** %), Toshkent (**72,4** %), Buxoro (**71,0** %), Jizzax (**70,0** %), Xorazm (**68,4** %) viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida (**69,9** %) kuzatilmoqda. Bu esa mazkur hududlarda xizmatlar sohasini rivojlantirishda kichik tadbirkorlik subyektlari muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Toshkent shahrida kichik tadbirkorlikning ulushi nisbatan past (**42,7%**) bo'lishiga qaramay, kichik biznes subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi mamlakat bo'yicha eng yuqori bo'lib, **69 122,3** mlrd so'mni tashkil etdi.

Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi boshqa hududlarga nisbatan birmuncha past bo'lib, 2026- yilning yanvar–aprel oylarida **3 827,0** mlrd so'mni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida xizmatlar sohasi bo'yicha kichik tadbirkorlik ko'rsatkichlari**  
2026- yil yanvar-aprel

	Hajmi, mlrd so'mda	Jami hajmdagi ulushi, %da	O'sish sur'ati, %da
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>230 080,0</b>	<b>56,6</b>	<b>115,7</b>
<i>hududlar:</i>			
Qoraqalpog'iston Respublikasi	9 065,5	69,9	113,3
Andijon viloyati	14 435,3	72,8	111,0
Buxoro viloyati	11 429,2	71,0	117,1
Jizzax viloyati	6 676,2	70,0	112,8
Qashqadaryo viloyati	14 324,0	73,6	112,7
Navoiy viloyati	5 774,9	57,5	116,6
Namangan viloyati	15 455,7	73,2	115,7
Samarqand viloyati	19 562,3	65,2	114,1
Surxondaryo viloyati	9 991,2	74,1	114,4
Sirdaryo viloyati	3 827,0	68,3	117,4
Toshkent viloyati	19 871,3	72,4	110,8
Farg'ona viloyati	20 491,4	75,4	114,6
Xorazm viloyati	10 053,7	68,4	112,9
Toshkent shahri	69 122,3	42,7	118,1

**III. Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari**

2026- yilning yanvar–aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib savdo, moliyaviy hamda transport xizmatlari hajmining ortishi hisoblandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025- yil 27-fevraldagi PQ-78-son "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, sohani rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari belgilangan hamda ularning monitoringini yuritish ko'zda tutilgan.

2026- yilning yanvar–aprel oylari ma'lumotlaridan boshlab, savdo sohasida ishlab chiqarish xizmatlari xalqaro ekspertlar tavsiyalari va xalqaro statistik standartlarga muvofiq, qayta sotish uchun mo'ljallangan tovar zaxiralari o'zgarishini hisobga olgan holda shakllantirilmoqda.

Ko'rsatkichlarning o'zaro taqqoslanuvchanligini ta'minlash maqsadida, mazkur press-relizda o'sish sur'atlarini hisoblash uchun foydalanilgan 2025- yil yanvar–aprel oylaridagi bazaviy ma'lumotlar ham aynan shu usul qo'llangan holda qayta hisoblab chiqildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga eng katta hissa savdo xizmatlari (o'sishi **13,9** %ga, umumiy o'sishga **3,6** foiz band hissa qo'shdi), moliyaviy xizmatlar (**23,8** %ga, **3,6** f.b.), transport xizmatlari (**15,0** %ga, **2,6** f.b.), yashash va ovqatlanish xizmatlari (**14,0** %ga, **2,3** f.b.), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**22,3** %ga, **1,6** f.b.), ta'lim sohasidagi xizmatlar (**22,6** %ga, **0,8** f.b.), boshqa xizmatlar (**15,3** %ga, **0,7** f.b.), shuningdek, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (**17,0** %ga, **0,4** f.b.) o'sishi hisobiga to'g'ri keldi. Ijara xizmatlari (**17,1** %ga), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (**15,1** %ga), kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (**12,8** %ga), shaxsiy xizmatlar (**10,9** %ga) hamda me'morchilik sohasidagi xizmatlar (**10,5** %ga) o'sib, umumiy o'sishga **1,0** foiz band ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Mazkur press-relizda keltirilgan va qayta ko'rib chiqilgan 2025-yilgi qiyosiy ko'rsatkichlar savdo xizmatlari hajmini hisoblashning yangilangan uslubiyotini o'z ichiga oladi, shu sababli ulardan 2026- yilning yanvar–aprel oylari bilan yillik ifodada taqqoslash uchun foydalanish lozim.

2026- yilning yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida savdo sohasida ishlab chiqarish xizmatlari **25,0** %, yashash va ovqatlanish xizmatlari **17,0** %, transport xizmatlari **16,5** %, moliyaviy xizmatlar **16,1** %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **7,6** %, ta'lim sohasidagi xizmatlar esa **3,6** % ulushni egalladi.

**Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari**  
yanvar-aprel

	Hajmi, mlrd so'mda		O'sish sur'ati, %da
	2025- yil	2026- yil	
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>330 540,4</b>	<b>406 368,7</b>	<b>116,6</b>
<i>shundan:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	23 560,0	30 862,1	122,3
moliyaviy xizmatlar	50 220,8	65 559,0	123,8
transport xizmatlari	57 021,6	66 910,2	115,0
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>27 930,5</i>	<i>34 929,0</i>	<i>114,1</i>
yashash va ovqatlanish xizmatlari	55 946,3	69 143,7	114,0
savdo xizmatlari	85 281,1	101 768,7	113,9
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	7 767,0	9 226,9	117,0
ta'lim sohasidagi xizmatlar	11 488,5	14 502,6	122,6
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	5 897,1	7 257,3	115,1
ijara xizmatlari	4 057,9	5 088,9	117,1
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	4 296,0	5 095,4	112,8
shaxsiy xizmatlar	6 042,5	7 339,9	110,9

me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	3 898,0	4 785,3	110,5
boshqa xizmatlar	15 063,6	18 828,7	115,3

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi](#)

2025- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan savdo sohasida ishlab chiqarish xizmatlarining hajmi **16 487,6** mlrd so'mga oshib, **101 768,7** mlrd so'mni tashkil etdi.


Savdo sohasida ishlab chiqarish xizmatlarining umumiy hajmi tarkibida chakana savdo xizmatlarining ulushi ustunlik qilib, **42,2** %ni tashkil etdi. Ulgurji savdo sohasida ishlab chiqarish xizmatlarining ulushi esa **34,2** %ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi, shu jumladan ularni ta'mirlash bo'yicha ishlab chiqarish xizmatlari, savdo sohasida ishlab chiqarish xizmatlarining umumiy hajmida **23,6** %ni tashkil etdi.

2025- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish xizmatlarining hajmi **13 197,4** mlrd so'mga oshib, **69 143,7** mlrd so'mni tashkil etdi. Mazkur xizmatlarning asosiy qismi oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash xizmatlari bilan bog'liq bo'lib, ulushi **96,0** %ni tashkil etdi.

2026- yilning yanvar-aprel oylarida transport xizmatlari hajmi **66 910,2** mlrd so'mga yetdi. Transport xizmatlari tarkibida avtomobil transporti xizmatlari ustun bo'lib, ulushi **52,2** %ni yoki **34 929,0** mlrd so'mni tashkil etdi.

Transport xizmatlarining o'sishi ichki va tashqi savdo faolligi, logistika, turizm hamda elektron tijoratning rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida yuk va yo'lovchi tashishga bo'lgan talabning ortishiga olib keladi.

**Transport xizmatlari hajmining turlari bo'yicha tarkibi**  
2026- yil yanvar-aprel




2025- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan tahlil qilinayotgan davrda moliyaviy xizmatlar hajmi **15 338,2** mlrd so'mga oshib, **65 559,0** mlrd so'mga yetdi. Bu ko'rsatkich 2025- yil yanvar-aprel oylari bilan solishtirganda **123,8** %ni tashkil etdi.

2026- yilning yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urtalash va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari, moliyaviy xizmatlar ulushi **88,4** %ni tashkil etdi.

Sug'urtalash bo'yicha xizmatlarning ulushi **7,2 %** darajasida qayd etildi. Yordamchi moliyaviy xizmatlar esa **4,4 %**ni tashkil etdi.

2026- yilning hisobot davrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **30 862,1** mlrd so'mni tashkil etdi. Mazkur soha tarkibida kompyuter dasturlashtirish xizmatlari eng katta ulushga ega bo'lib, **46,2 %**ni qayd etdi. Shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmida telekommunikatsiya xizmatlari ulushi **29,9 %**ni, axborot xizmatlari **15,0 %**ni, nashriyot xizmatlari **6,6 %**ni hamda boshqa xizmatlar **2,3 %**ni tashkil etdi.

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining turlari bo'yicha hajmi**  
yanvar-aprel, mlrd so'mda



Sohada kompyuter dasturlashtirish xizmatlarining yuqori ulushi yangi AT-klaster shakllanayotganidan dalolat beradi. Bu esa yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan samarali ish o'rinlarini yaratish bilan birga, ayniqsa outsorsing xizmatlari va dasturiy ta'minot ishlab chiqish yo'nalishida eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

2026- yilning yanvar-aprel oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **14 502,6** mlrd so'mni tashkil etdi, uning tarkibida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar (**43,3 %**) ustunlik qildi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmi **9 226,9** mlrd so'mni tashkil etib, uning tarkibida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlarning ulushi **92,6 %** darajasida qayd etildi.

2026- yilning tahlil qilinayotgan davrida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi **7 257,3** mlrd so'mni tashkil etdi. Mazkur sohadagi xizmatlar umumiy hajmining **63,0 %**ini sog'liqni saqlash sohasidagi boshqa xizmatlar tashkil etdi. Shifoxona muassasalari xizmatlari **20,2 %**, tibbiy amaliyot va stomatologiya sohasidagi xizmatlar esa **16,8 %**ni tashkil etdi.

#### IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

Press-relizda keltirilgan ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalari hisobga olingan holda shakllantirilgan.

Ma'lumotlar dastlabki hisoblanib, keyingi nashrlarda ularga aniqliklar kiritilishi mumkin.

**Bozor xizmatlari hajmi va ularning ulushi** joriy narxlarda keltirilgan.

**O'sish sur'atlari** tegishli narxlar va tariflar indekslaridan foydalangan holda taqqoslama narxlarda hisoblangan.

**Oylik xizmatlar hajmi quyidagi manbalar asosida shakllantiriladi:**

a) tijorat tashkilotlari (kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari bundan mustasno), tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari hamda notijorat tashkilotlar (ro'yxat bo'yicha) tomonidan taqdim etilgan statistika hisobotlari;

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi har oylik telefon so'rovnomalari, choraklik kuzatuv ma'lumotlari va kichik korxonalar hamda mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobot shakllari asosida baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv natijalari asosida baholash.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu** – xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan yoki xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi bo'lmagan barcha xizmat ko'rsatuvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan iste'molchilarga (jumladan, norezidentlarga) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida** ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha **hisoblangan to'lovlar (QQS va aksizsiz)** hisobga olinadi.

Agar xizmatlar real oldi-sotdi obyekt bo'lsa va ularning narxi iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lib, ishlab chiqaruvchi sarf-xarajatlarini to'liq yoki sezilarli darajada qoplasa, bunday xizmatlar **bozor xizmatlari** sifatida hisobga olinadi. Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

**Ulgurji va chakana savdo korxonalarini uchun ishlab chiqarish hajmi** tovarlarni qayta sotishdan tushgan tushum va ularni sotib olish xarajatlari o'rtasidagi farq hamda qayta sotish uchun mo'ljallangan tovarlar zaxirasidagi o'zgarishlar yig'indisi sifatida aniqlanadi (*Eurostat, Handbook on prices and volume measures in national accounts, 2016 edition*).

**Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar** (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa) shartnoma narxlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tranzaksiya sanasida belgilangan kurs bo'yicha qayta hisoblanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash** O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** MST (Mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichi) bo'yicha G-S seksiyalarga kiradigan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi asosida shakllantiriladi.

## V. Foydali havolalar

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom](#)

[O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar \(tovarlar, ishlar, xizmatlar\)ning statistik tasniflagichi \(MST\)](#)

[O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar \(tovarlar, ishlar, xizmatlar\) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlari batafsil \(kengaytirilgan\) ro'yxati](#)

[Handbook on prices and volume measures in national accounts](#)

**Tayyorlash uchun mas'ul:**  
Xizmatlar sohasi statistikasi  
boshqarmasi

**Manzil:** 100170, Toshkent,  
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63.  
**Elektron pochta:** [info@stat.uz](mailto:info@stat.uz)  
Tel.: 71-203-80-00 (1280, 1281)

